



BADIIY ADABIYOTDA "OBRAZ" ATAMASINING MOHIYATI

¹Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi,

²Raxmanova Shahzoda Husinboy qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs talabasi va
1-kurs talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7776844>

ARTICLE INFO

Received: 20th March 2023

Accepted: 24th March 2023

Online: 25th March 2023

KEY WORDS

Badiiy asar, badiiy obraz,
"mimesis" atamasi, portret,
muallif xarakteristikasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada obraz tushunchasiga tasnif va uning tuzilishi haqida ma'lumot berilgan. Badiiy obraz va uning xususiyatlari aks ettirilgan. Badiiy asar mohiyatini ochib berishda obrazning ahamiyati bayon qilingan. Va bunda "O'tkan kunlar" va "Kecha va kunduz" romanlaridagi qahramonlardan foydalanilgan.

Badiiy adabiyotda obrazning tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki yozuvchi birgina obraz orqali butun bir jamiyatdagi insonlarni tasvirlab berishi kerak. Shuning uchun ham badiiy obrazga juda katta yuk yuklanadi. Va buning uchun ijodkor ham yuksak qalam sohibi bo'lishi va obrazini yaratish davomida juda ko'p izlanishi lozim.

"Obraz" termini rus tilidan olingan bo'lib, o'zbekcha tarjimada "aks" degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham "obraz" deb aytiladi... Biz "obraz" deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz [1; 63]". Obraz tushunchasi oddiy kitobxon nazarida asarda ishtirok etayotgan inson sifatida gavdalanadi. Ammo obraz tushunchasi keng ma'noga ega. Hayvonlar, oddiy buyumlar va hatto so'z ham obraz darajasiga ko'tarilishi mumkin. Yuqoridagi so'zlarning dalili sifatida ushbu fikrlarni keltirib o'tishimiz mumkin: "To'g'ri ayrim asarlar borki, ularda inson obrazi yaratilgan emas: masallar, hayvonlar haqidagi ertaklar yoki asarlar, peyzaj lirikasi va boshqalar. Biroq ularda ham yo majoziy ravishda inson, inson hayoti haqida so'z boradi (masallar, hayvonlar haqida ertaklar), yo inson qalbi tasvirlanadi (peyzaj lirikasi) [1; 69]".

Shu o'rinda "obraz" atamasi tarixiga ko'z tashlasak: "Obraz atamasi haqidagi ilk fikrlarni mashhur yunon faylasufi Aristotelning estetik qarashlaridayoq uchratish mumkin. Biroq Aristotel "Poeziya san'ati haqida" nomli asarida "obraz" atamasi o'rnida "mimesis" iborasini ishlatgan. "Mimesis"- taqlid demakdir. Binobarin, olim mimesis (obraz) turmushga taqlidan yaratiladi deb hisoblagan. "Obraz" atamasi birinchi marta mashhur nemis faylasufi Gegelning estetikaga oid asarlarida ishlatilgan. Bu haqdagi jiddiy ta'limot ham ana shu olim qalamiga mansub. Gegel o'z estetik qarashlarida san'at haqida fikr yuritarkan, "san'at- obrazlar orqali fikrlash" demakdir deb ta'kidlagan. Rus atamashunosligiga "obraz" atamasini, asosan, V.G. Belinskiy olib kirgan, bu ta'limotni takomillashtirgan. O'zbek adabiyotida "obraz" atamasi o'rniga 20-asr boshlarigacha "timsol", "tasvir", "nusxa" kabi iboralar ishlatilgan. Asrimizning 20-30-yillarida o'zbek atamashunosligiga "obraz" atamasi kirib kelgan [2; 41]".



Ya'ni Aristotel bu yerda obraz- borliqdagi insonlarning taqlidi, oynadagi aksi ekanligini ta'kidlamogda. Ko'plab ijodkorlar o'z asarlarini reallikka intilgan holda hayotda ko'rgan-kechirgan voqealarini umumlashtirib yozishadi. O'z qahramonlarining xarakterini ham yon-atrofdagi insonlardan oladi. "Prof .L.I.Timofeevning ta'rificha, "obraz- to'qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va, ayni chog'da, konkret manzarasidir [3]".

Yozuvchi badiiy asar yozar ekan, shu asardagi obrazlari orqali kitobxonga nimanidir tushuntirmoqchi bo'ladi. Yoki o'zi aytmoqchi bo'lgan dilidagi gaplarni, orzu va armonlarini badiiy asardagi obrazga "yuklaydi". "Badiiy obrazdagi ratsional jihat shuki, uning yordamida ijodkor o'zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi. Masalan, Cho'lponni Turkistonning tarixiy taraqqiyoti masalalari, yurtning ertasi haqidagi o'ylar tashvishlantirgan. O'zini qiynagan muammolarni Cho'lpon "Kecha va kunduz " romanidagi qator obrazlar vositasida badiiy tadqiq etadi, asardagi obrazlar tizimi vositasida o'zining badiiy fikri (tugal bir qarash, tizim holiday xulosa-konsepsiya) ni shakllantiradi va ayni shu obrazlar orqali o'zi anglagan haqiqatni badiiy fikr (konsepsiya) tarzida ifoda etadi [1;65] ".

"Badiiy adabiyoda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kiradi. Obrazga bevosita yozuvchining o'zi tomonidan berilgan ta'rif "muallif xarakteristikasi " deb yuritiladi. Muallif xarakteristikasida obrazning fe'l -atvoriga xos asosiy xususiyatlar bayon qilinadi [1;69] ". Albatta, inson obrazini shakllantirishda uning portreti alohida ahamiyatga ega. Ya'ni obrazni kitobxon tasavvur qilishi uchun yozuvchi uning tashqi ko'rinishi yoki ichki olami, xarakterini tasvirlab o'tishi lozim. Ana o'shandagina kitobxon ko'z oldida o'z qahramoni gavdalanadi. Bunda, albatta, kitobxondan ham kuchli fantaziya talab qilinadi. Ayrim yozuvchilar qahramonning faqat ichki olamiga e'tibor bersa ayrimlari esa uning faqat tashqi qiyofasini chizadi. O'zbek adabiyotida ham bunday mahoratga ega yozuvchilar talaygina. Masalan, Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida sevimli qahramoni Zebining tashqi qiyofasini chizmagan. Aksincha, uning ichki olami, xarakterini tasvirlagan. Kitobxon bu tasvirlar orqali Zebining tashqi ko'rinishini o'z xayolida gavdalandiradi. Bu Cho'lponning mahoratidan darak beradi. Yoki aksincha bo'lib, yozuvchi obrazning tashqi ko'rinishini tasvirlaydi. Bu orqali esa kitobxon uning ichki dunyosi, xarakterini ko'z oldiga keltiradi. Muallif xarakteristikasi ham kitobxonda obraz haqida yaxlit tasavvur hosil qilishiga yordam beradi.

Badiiy asar o'qiyotib, "falon qahramon o'lmaganda edi", "falon bilan piston qahramon bir-biriga yetishsa yaxshi bo'lardi" yoki "asarning oxiri yaxshilik bilan tugasa edi" kabi gaplarni dilidan o'tkazmagan kitobxon bo'lmas kerak. Hatto ayrim manbalarda shu istaklarni bildirib, yozuvchiga xat yozgan kitobxonlar haqida ham o'qiganmiz. Albatta, kitobxon asar qahramonining taqdiri, voqealar rivoji yozuvchining o'z qo'lida deb o'ylaydi. Ammo yozuvchi asarini yozish davomida betaraf bo'lishi lozim. Shundagina bu asar yuksak darajadagi san'at asariga aylanadi. Yozuvchi betaraf bo'lsagina, ya'ni qahramonlar taqdirini o'z holicha voqealar rivojiga tashlab bersagina asar qiymati yanada oshadi. Agar buning aksi bo'lganida edi, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi suyukli qahramoni Kumush zaharlanib o'lmas edi, Cho'lponning "Kecha va kunduz "romanida Zebi qamalmas edi, O'tkir Hoshimovning " Ikki eshik orasi " romanidagi Muzaffar va Munavvarning taqdiri bunday



ayanchli tugamas edi. A.Qodiriy Kumushning o'lim sahnasini yozib bo'lgach, kuyib yig'laganligidan ham bilishimiz mumkinki, obrazlarning taqdiri yozuvchiga bog'liq emas.

Demak, badiiy obraz butun bir asarning mohiyatini ochib beradi. Yozuvchi jamiyatdagi illatlarni ochib berishda va o'zi aytmoqchi bo'lgan dilidagi gaplarni xalqqa yetkazishda badiiy obrazdan foydalanadi. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda obrazga yuklanadigan yuk og'ir. Va shu o'rinda yozuvchidan ham katta mahorat talab qilinadi. Qahramoni siymosini kitobxon ko'z oldida gavdalantira olishi uchun yozuvchi yuksak iste'dod sohibi bo'lishi kerak. Ya'ni yozuvchi bir savdogar yoki shifokorning obrazini yaratishi uchun barcha savdogar va shifokorlarni kuzatishi va keyin ularni yagona bir obrazga jamlashi kerak. Chunki yozuvchi asari orqali butun bir jamiyat taqdirini, xalqning dardini aks ettiradi.

References:

1. Dilmurod Quranov. Adabiyotshunoslikka kirish - Toshkent. "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti". 2004. 63-69-65-69- betlar.
2. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari .- Toshkent. "O'zbekiston". 2002. 41-bet
3. Л. И. Тимофеев. Основы теории литературы. М. Просвещение. 1971.62-63-бетлар.